



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 11-avgust

№ 2156

Ayrim sudyalarni lavozimidan ozod etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 79-moddasi va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunining 7, 17-moddalariga muvofiq:

Pardayev Orif Mamayunusovich – Samarqand viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Samarqand shahar sudining raisi vakolati muddati tugaganligi munosabati bilan va boshqa sudyalik lavozimlariga o'tishga rozilik bermaganligi bois O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 9-bandiga asosan uning sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin;

Niyozov Yashin Komiljonovich – Sudyalar odobi kodeksi talablarini buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 10-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Buxoro viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Baysariyev Shavkat Xusanovich – yozma arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Sirdaryo viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Mirzaobod tuman sudining tergov sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Rasulov O'ktam Xaydarovich – yozma arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Qashqadaryo viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Ko'kdala tuman sudining raisi lavozimidan ozod etilsin;

Boymurodov Qaxramon Xolmirzayevich – yozma arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Qashqadaryo viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha G'uzor tumanlararo sudining raisi lavozimidan ozod etilsin;

Tojiyeva Nozimaxon Muydinjonovna – boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan yozma arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Farg'ona viloyati Farg'ona tumanlararo ma'muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Xojamkulova Surayyoxon Rustamovna – boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan yozma arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Toshkent shahar sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimidan ozod etilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov